


QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- aprel holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- mart oylarida)








Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **69,8** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarida xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,3 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



285

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 858

Ishlab chiqarish sanoati

28

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

53

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 224 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 17,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 25,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 16,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 15,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




8,4 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




12,8 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




29,4 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 360 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 1,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 67,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 25,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 25,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 24,3 %) o'sishidir.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8 517 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,8 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 40,2 % ga (jami savdodagi ulushi 71,2 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 17,2 % ga (jami savdodagi ulushi 21,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 30,0 % ga (jami savdodagi ulushi 7,4 %) o'sishidir.




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar

Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

677



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

11



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



89

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 467


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 556 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,0 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 33,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,3 %), yashash bo'yicha xizmatlar bir baravarga oshgan (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 5,7 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **27,7** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




33,8 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




2,3 marta ko'paygan




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **33,3** foizga kamaydi



Xususiy korxonalar




18,6 foizga oshdi



(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,2** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




9,1 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




10,8 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar



2,2 martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **25,0** foizga oshdi




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 3 159 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1632 taga yoki 2,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 001 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 539 taga yoki 2,0 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 813 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 615 taga yoki 4,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 15 255 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 114 taga yoki 36,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 817 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 011 taga yoki 37,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 747 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 049 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra 231 tani tashkil etib, ulardan 225 tasi yoki 97,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 23 taga yoki 11,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar soni**
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|-----------|-----------|------------|------------|------------|
| Jami | 50 | 55 | 115 | 205 | 225 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 3 | 4 | 12 | 33 | 42 |
| Sanoat | 35 | 36 | 69 | 108 | 111 |
| Qurilish | 1 | 2 | 7 | 11 | 12 |
| Savdo | 7 | 9 | 15 | 27 | 35 |
| Tashish va saqlash | 1 | 1 | 2 | 4 | 5 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 0 | 0 | 4 | 10 | 8 |
| Axborot va aloqa | 1 | 1 | 1 | 3 | 1 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 0 | 0 | 0 | 4 | 4 |
| Boshqa turlar | 2 | 2 | 5 | 5 | 7 |

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

| | Jami | shundan: | |
|-----------------------------|------------|--------------------|--------------------|
| | | qo'shma korxonalar | xorijiy korxonalar |
| Qashqadaryo viloyati | 225 | 159 | 66 |
| G'uzor | 12 | 10 | 2 |
| Dehqonobod | 13 | 9 | 4 |
| Qamashi | 13 | 10 | 3 |
| Qarshi | 16 | 10 | 6 |
| Koson | 23 | 14 | 9 |
| Kitob | 19 | 13 | 6 |
| Mirishkor | 6 | 4 | 2 |
| Muborak | 11 | 6 | 5 |
| Nishon | 15 | 13 | 2 |
| Kasbi | 5 | 3 | 2 |
| Chiroqchi | 13 | 10 | 3 |
| Shahrisabz | 6 | 4 | 2 |
| Yakkabog' | 15 | 8 | 7 |
| Qarshi sh. | 53 | 44 | 9 |
| Shahrisabz sh. | 5 | 1 | 4 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 53 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,6 %), Koson 23 ta (10,2 %), Kitob 19 tani (8,4 %), Qarshi 16 ta (7,1 %), Yakkabog' 15 ta (6,7 %), Nishon 15 ta (6,7 %) hamda Dehqonobod tumanida 13 tani (5,8 %) tashkil etadi.

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (19,9 %), Chiroqchi (8,3 %), Qamashi (7,7 %), Koson (7,6 %), Qarshi (7,4 %), Kitob (7,0 %), Yakkabog' (6,6 %), Shahrisabz shahri (5,7 %), Shahrisabz (5,0 %), G'uzor (4,8 %), Dehqonobod (4,6 %), Kasbi (4,3 %), Nishon (4,3 %), Mirishkor (3,5 %), va Muborak (3,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Qamashi (18,3 %), Qarshi shahrida (14,2 %), Kitob (9,0 %), Chiroqchi (8,0 %), Yakkabog' (7,0 %), Koson (6,4 %), Nishon (5,7 %), Qarshi (5,4 %), Kasbi (5,1 %), G'uzor (4,9 %), Shahrisabz (4,4 %), Mirishkor (3,7 %), Shahrisabz shahri (2,8 %), Dehqonobod (2,7 %) va Muborak tumani (2,4 %) ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Qarshi shahrida (24,1 %), Koson (10,6 %), Qamashi (9,5 %), Chiroqchi (7,8 %), Qarshi (6,6 %), Yakkabog' (6,2 %), Kasbi (4,8 %), Mirishkor (4,7 %), Nishon (4,5 %), Muborak (4,3 %), G'uzor (4,1 %), Shahrisabz shahri (4,0 %), Kitob (4,0 %), Shahrisabz (3,3 %) va Dehqonobod tumani (1,6 %) hissalariga tegishli.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017- 2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2021- yilning yanvar- mart oylarida, birlikda)



2021- yilning yanvar-mart oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Kitob (22,3 %), Qarshi shahri (15,0 %), Chiroqchi (13,8 %), Shahrisabz (10,7 %), G'uzor (10,0 %), Qarshi (7,3 %), Mirishkor (5,4 %), Qamashi (3,7 %), Shahrisabz shahri (3,2 %), Yakkabog' (2,0 %), Muborak (2,0 %), Koson (1,6 %), Kasbi (1,5 %), Nishon (1,1 %) va Dehqonobod tumanida (0,6 %) ulushlarini qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(75) 220-03-98